



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQRISHINING BA’ZI JIHATLARI

Hayitboyeva Nodira Ulugbek qizi

magistrant

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Ismailov Xusan Muxammadjon o‘g‘li

magistrant

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

e-mail: xusanismoilov1996@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, uning hududiy xususiyatlari, tadrijiy o‘zgarishlari bayon qilingan. Mintaqada agrar sohani rivojlantirish imkoniyatlari, ishlab chiqarish salohiyati ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, qishloq xo‘jaligi, agrar soha, dehqonchilik, chorvachilik, qishloq xo‘jaligi dinamikasi.

SOME ASPECTS OF AGRICULTURAL PRODUCTION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Hayitboyeva Nodira

Ismailov Xusan

Annotation. The article describes the agricultural sector of the Republic of Karakalpakstan, its territorial features and gradual changes. The opportunities for the development of the agricultural sector in the region, the production potential have been scientifically analyzed.

Keywords: Republic of Karakalpakstan, agriculture, agrarian sector, agriculture, animal husbandry, dynamics of agriculture.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi (QR) O‘zbekiston Respublikasining g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, maydoni 166,6 ming km² yoki mamlakatning 37,1 foiz hududini egallaydi.

Qoraqalpog‘iston yer usti tuzilishi murakkab emas, biroq qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyati ancha past. Agroiqtisodiyotida paxta, sholi, go‘sht, jun mahsulotlarini ishlab chiqarish boshqa sohalarga nisbatan yaxshi tashkil etilgan. Mintaqaning qishloq xo‘jaligini bunday sohalarga ixtisoslashuvi, asosan, uning agroiqlimiy shart-sharoitlariga bog‘liq. 2021-yil yakunlariga ko‘ra, QR O‘zbekiston Respublikasining 3,1 foiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarini bergan. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibida dehqonchilikning ulushi 53,3%; dehqonchilik va

chorvachilik mahsulotlarining o‘zaro nisbati yillar davomida ob-havo sharoitiga qarab o‘zgarib turadi.

Ma‘lumki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi katta yer maydoniga ega, ammo suv tanqisligi sababli bu tabiiy imkoniyatdan foydalanish darajasi past. Masalan, jami yer maydonining 32,3 foizidan qishloq xo‘jaligida foydalaniladi, xolos. O‘z navbatida, sug‘oriladigan yerlar umumiy qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning bor-yo‘g‘i 9,2 foizini tashkil qiladi (lekin miqdor jihatdan respublikamizda oldingi o‘rinlarda turadi – 479 ming ga). Jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 8,1 foizini ekin ekiladigan yerlar va 91,2 foizini pichanzor va yaylovlar egallaydi. Qishloq tumanlari miqyosida sug‘oriladigan yerlar Amudaryo, Qonliko‘l, Xo‘jayli, Ellikqal’a va Nukus tumanlarida ko‘proq. Ularning eng oz miqdori yoki ulushi Qorao‘zak, Mo‘ynoq, Taxtako‘pir, To‘rtko‘l tumanlariga mos keladi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarning 58,3 foizi dehqon xo‘jaligida, 40,2 foizi fermer xo‘jaliklarida yaratiladi. 2021-yilda qishloq xo‘jalik ekinlarining umumiy maydoni 265,8 ming gektar, bundan 102,6 ming gektari boshqoli don ekinlari bilan, 10 ming gektari paxta bilan band. 2021-yil yakunlari bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklarda 244 ming tonna don, 31 ming tonna kartoshka, 134 ming tonna sabzavot, 70 ming tonna poliz mahsulotlari, 25 ming tonna mevalar yetishtirilgan. Biroq, ta‘kidlash joizki, bu yerda agroiqtisodiyot tizimining hosildorligi past. Masalan, g‘alla ekinlari bo‘yicha mamlakatda o‘rtacha hosildorlik bir gektar yerdan 45,2 sentnerni tashkil qilsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu ko‘rsatkich 27,3 s/ga teng. Mintaqa Xorazm viloyati bilan birgalikda O‘zbekistonda asosiy sholi yetishtiradigan rayoni hisoblanadi. Hosildorlik sabzavot yetishtirish bo‘yicha 152,7, kartoshka 75,4 sentner. Qoraqalpog‘iston nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda ham paxta yetishtiradigan eng shimoliy hudud sanaladi. Uning hosildorligi bu yerda atigi 19,2 s/ga.


Uning ekin yerlari tarkibida muntazam o‘zgarishlar bo‘lib kelgan. 2010-yilda mazkur yerlar maydoni 265,75 ming gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 275,6 ming gektarga yetdi yoki 1,04 foizga ko‘paydi. O‘z navbatida hosildorlik ham doimiy 11,5 martagacha (aslida 3 baravar), shundan dehqonchilik 9,5 (aslida 2,5), chorvachilik esa 14,3 martagacha (aslida 3,5 baravargacha) o‘sib brogan. Chunki tahlil qilinayotgan yillarda inflyatsiya darajasi 400 foizgacha o‘sdi. Mintaqaning agrar sharoitidan kelib chiqsa, bu ko‘rsatkich ham yuqori hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hosildorligi ulushi dinamikasi

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, gektar	265 750	224 388	254 772	233 410	229 760	251 620	256 340	264 412	232 141	263 724	263 763	275 626
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd so'm	990,4	1 282,1	1 812,2	2 071,4	2 558,7	3 332,2	3 929,8	4 801,3	6 562,9	8 208,1	9 751,6	11 387,2
shu jumladan:												
dehqonchilik	568,1	617,9	940,7	994,5	1 164,2	1 618,4	1 799,7	2 276,7	2 992,1	3 947,9	4 509,7	5 365,8
chorvachilik	422,3	664,2	871,5	1 076,9	1 394,5	1 713,8	2 130,1	2 524,6	3 570,8	4 260,2	5 241,9	6 021,4
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	121,3	94,9	119,3	103,5	106,6	109,8	108,3	103,1	100,6	107,0	102,3	103,4
shu jumladan:												
dehqonchilik	130,9	83,5	129,8	92,2	105,1	112,7	109,2	99,9	96,0	112,4	100,6	102,6
chorvachilik	108,4	110,2	109,5	115,8	107,9	107,4	107,5	105,8	104,7	102,5	103,9	104,1

Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari (<https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>), 2021 y.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mintaqa hududlari bo'yicha bir xil tarqalmagan. Bu borada iqtisodiy geografik jihatdan juda qulay o'rinda, daryoning chap qirg'og'ida joylashgan Amudaryo tumani yetakchilik qiladi (19%). O'z navbatida Beruniy, Ellikqal'a hamda To'rtko'l tumanlari respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 11-13 foizini yetkazib beradi. Orol dengizi bo'yida joylashgan Mo'ynoq tumani agroiqtisodiyoti eng sust rivojlangan hudud hisoblanadi (1 foizga yaqin). Eng yosh tumani Bo'zatovga va Taxiatoş tumanida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ulushi atigi 2 foizni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ulushi

G'alla yetishtirish Ellikqal'a, To'rtko'l va Amudaryo tumanida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu uch tuman hissasiga Qoraqalpog'iston Respublikasida olingan boshoqli don hosilining 40,1 foizi to'g'ri keladi. Paxtachilikka esa, asosan, suv bilan yaxshi ta'minlangan janubiy rayonlar ixtisoslashgan. Sabzavot mahsulotlari hosili bo'yicha Nukus (Nukus aglomeratsiyasi doirasida) hamda Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlari yetakchi. Birgina Nukus tumaniga QRda olingan sabzavotning 28,4 foizi to'g'ri keladi. Kartoshka ham asosan Amudaryo tumanida ko'proq ekiladi.

Chorvachilik sohasida, yirik shoxli qoramollar soniga ko'ra Beruniy, To'rtko'l, Amudaryo, Ellikqal'a tumanlari oldinda turadi. Qo'y va echkilar soni bo'yicha esa Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Taxtako'pir, To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlari ajralib turadi.

Mintaqa qishloq xo'jaligi so'nggi yillarda juda ko'p o'zgarishlarga uchradi. Ayniqsa, Orol dengizi halokati uning iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Agroiqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishda uning geografik o'rmini hisobha olish olish juda muhim. Yer va suv yetishmovchiligi mavjud bo'lgan joylarda (Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Ellikqal'a) qishloq xo'jaligini faqat ekstensiv shaklda (chorvachilik, lalmi dehqonchilik) tashkil etsa bo'ladi. Amudaryo bo'yida joylashgan hududlar (Amudaryo, Xo'jayli, Nukus) intensiv qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2021. (www.qrstat.uz)
2. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). - T.: Universitet, 2014.
3. Сагтаров, А. У. Намозов Джурабек Абдуазизович, Раджабов Фуркат Туракулович.(2021 год). Влияние пастбищного животноводства на сельскохозяйственные угодья Самаркандской области. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(2), 447-451.
4. Namozov, J. A., Sangirova, U. R., Yunusov, I. O., Ahmedov, U. Q., G'G, D., & Hakimov, R. (2020). Features of GIS application in agriculture. *Journal of Xi'an University of Architecture & Technology*, 12(4), 305-8.
5. Namozov, J. A., Khamroeva, F. A., & Dovulov, N. L. (2021, September). Specific and integral efficiency use of land and water resources. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 839, No. 2, p. 022025). IOP Publishing.